

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti dekani, professor, Burxanov Aktam Usmanovich taqrizi ostida

Jamolova Xonzoda Oralboy qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2-bosqich talabasi
Telefon raqam: +998931253404
researchscience02@gmail.com

TAKAFUL SUG'URTANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada takaful sug'urtasini ham an'anaviy sug'urta singari keng targ'ib qilish togrisida, shuningdek undan keladigan manfaatlari turli olimlar fikr va mulohazalari orqali tahlil qilingan. Maqolada sug'urta kompaniyalar faoliyati o'rganilgan, bundan tashqari, mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari o'rganilib, turli taklif va xulosalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: Takafful sug'urtasi, sug'urta kompaniyasi, sug'urta shartnomasi, tavakkalchilik, islomiy sug'urta.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТАКАФУЛ СТРАХОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье широкая пропаганда тафаул-страхования, как и традиционного страхования, а также его преимущества анализируются через мнения и мнения различных ученых. В статье рассматривается деятельность страховых компаний, кроме того, изучаются вопросы развития страхового рынка в нашей стране, даются различные предложения и выводы.

Ключевые слова: Тафаул-страхование, страховая компания, договор страхования, риск, исламское страхование.

DEVELOPMENT PROSPECTS OF TAKAFUL INSURANCE

Abstract: In this article, the wide promotion of takaful insurance, like traditional insurance, as well as its benefits are analyzed through the opinions and opinions of various scholars. The article examines the activities of insurance companies, in addition, issues of the development of the insurance market in our country are studied, and various suggestions and conclusions are given.

Key words: Takaful insurance, insurance company, insurance contract, risk, Islamic insurance.

Kirish

Islom sug'urtasi (takaful) islom moliya sanoatining nisbatan yangi, ammo o'sib borayotgan segmentidir. Rag'batlantirishga kelsak, takafulni an'anaviy sug'urtadan ajratib turadigan eng muhim xususiyat sug'urtalovchilar va sug'urta kompaniyasi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomaning tabiat bilan bog'liq. An'anaviy sug'urta, bиринчи navbatda, tavakkalchilikni o'tkazish shartnomasidir, chunki u sug'urtalanganlardan sug'urtalangan zarar xavfini kelishilgan mukofot miqdorida sug'urta kompaniyasiga o'tkazadi. Sug'urta kompaniyasi sug'urta operatsiyasidan kelib chiqqan holda yozilgan mukofotlar va har qanday ortiqcha yoki kamomadga egalik qiladi. Sug'urta polisi egalari faqat sug'urta polisida belgilangan shartlarda da'vo qilish huquqiga ega. Boshqa tomondan, islom sug'urtasi sug'urtalanganlar o'rtasida risklarni taqsimlash shartnomasidir.

Islom sug'urtasi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan takaful, vaqf, o'zaro yordam jamg'armalari va o'zaro sug'urta ko'rinishida. Islomiy sug'urtalash asosi bo'lgan takofulni ko'rib

chiqadigan bo'lsak, "takaful" arabcha so'z bo'lib "o'zaro kafolatlash" ma'nosini bildiradi va O'zbekiston qonunchiligidagi ko'zda tutilgan, fuqaro va tashkilotlar tomonidan muayyan pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ikki tomonlama sug'urtaga mos keladi. Ushbu sug'urta turi ayrim mamlakatlarda vaqf ko'rinishida ham qo'llanib kelinmoqda. Bundan, moliyaviy mahsulot yoki tizimning nafaqat nomiga balki uning shakli va tamoyillariga ham e'tibor qaratish muhimligini anglashimiz mumkin.

Islom moliyasining moxiyati va uning zamонавији moliyaviy instrumentlariga oid ilmiy yondashuvlarni tadqiq etish xamda takofulning ishslash mexanizmi va tipologiyasining ilmiy asoslarini ochib berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Sug'urta bozorida takofulning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni va uning roliga oid ilmiy-nazariy qarashlarini yoritib berishda bugungi kun qonunchiligi asosida o'rganish lozim.

Adabiyotlar sharxi

Tadqiqot jarayonida 'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning asarlaridan keng foydalanildi, shuningdek Sh.M. Mirziyoyevning 2019 yil 10 iyuldagagi sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilishdagi nutqi metogologik manba sifatida olindi. Shuningdek takaful sugerita xizmatlari bilan shugullanuvchi kompaniyalar faoliyati bilan tanishildi.

Tadqiqod metodologiyasi

Mazkur ilmiy maqolada sugurtaning takafful turini xalqaro standartlariga muvofiq tarzda jahon tajribasiga tayangan holda yurtimiz O'zbekistonda ham uni joriy qilish, bundan mamlakatimiz iqtisodiyotiga ko'rilibdigan manfaatlarni, foya va afzallikkarni qolaversa bu yo'ldagi qiyinchilik, kutilishi mumkin bo'lgan muammolar haqida fikr mulohazalar yuritish uchun vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida empirik tadqiqotni kuzatish, induksiya, deduksiya, jamlash va ma'lumotlar manbalari o'rtaqidagi aloqlarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Islomiy moliyaviy xizmatlar sanoatiga qiziqish ortib bormoqda, chunki bu soha ancha chidamli bo'lib chiqdi va katta sur'atlarda o'sib bormoqda va hatto kòp yuz beradigani moliyaviy inqirozlarda ba'zi bir an'anaviy moliya institutlari muvaffaqiyatsizlikka uchramoqda bir paytda, Islomiy moliyaviy xizmatlar sanoatida tadqiqotlar islam va an'anaviy banklar yonma-yon mavjud bo'lgan mamlakatlardagi bank barqarorligini tahlil qiluvchi adabiyotlarning katta qismi bilan islam bankini o'rganishga katta kuch sarfladi. Huddi shunday sugerita sohasida ham takaful sugerita xizmatlarini kengaytirish ahamiyatli ekanligi ma'lum. Yurtimiz O'zbekistonda ham avvalo takaful sugeritasini joriy etish bu xalq ishonchini kòproq qozonish demakdir. Negaki, aholi dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, takafful sugurtaning qonun-qoidalari kòproq mos keladi. Hozirgi kunda takafful sugerita sugerita bozorida deyarli bilinmas darajada bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy majlisga qilgan murojaatida O'zbekistonda Islom moliyasi xizmatlarini joriy qilish vaqtini yetib kelganligi to'g'risida belgilangan vazifalar, o'z navbatida mavzuga oid dolzarb va muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbir o'tkazilishini taqozo etdi. 2021 yil 3 mart kuni Hilton Tashkent City anjumanlar zalida, respublika sug'urta bozorida jadal rivojlanayotgan «APEX INSURANCE» MChJ sug'urta kompaniyasi tashkilotchiligidagi «O'zbekistonda Islom moliyasi va takaful» mavzusidagi keng ko'lamli anjuman bo'lib o'tdi. Tadbir davomida «APEX TAKAFUL» nomli islam sug'urtasi bo'yicha O'zbekistondagi birinchi pilot loyihasi taqdimoti o'tkazildi. Ta'kidlash joizki, mazkur loyiha doirasida ishlab chiqilgan islomiy sug'urta

mahsulotlari bo‘yicha «AlHuda CIBE» Islom bankingi va iqtisodiyoti Markazidan muvofiqlik sertifikati hamda O‘zbekiston musulmonlar idorasi Fatvo bo‘limining ijobiy xulosalari olingan.

Mamlakatimizda sug‘urta bozorini rivojlantirish masalalari o‘rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllandi:

Birinchidan, bugungi kunda mamlakatimiz milliy sug‘urta bozori nisbatan tez rivojlanayotgan bo‘lsada, bugungi kun jahon talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Sug‘urta bozorida uning turlarini ko‘paytirish va yangi mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Bu o‘rinda islomiy sig‘urta-takoful mexanizmlaridan foydalanish zarur.

Ikkinchidan, sug‘urta xizmatidan foydalanayotgan va foydalanishi mumkin bo‘lgan aksariyat qismi, sug‘urta haqida to‘liq ma’lumotga ega emas. Holbuki, bu sug‘urta turiga talabning ortishi sug‘urtalanuvchi va sug‘urtalanuvchiga moliyaviy holatini yaxshilashda o‘zining salmoqli xissasini qo‘shadi. Yuridik shaxslar sug‘urta qildirishi uchun, birinchi navbatda, ularga ishonch kerak. Jismoniy shaxslarga esa to‘g‘ri ma’lumot. Ma’lumotlar to‘g‘ri va to‘liq bo‘lishi ularni sug‘urtadan to‘g‘ri va maqsadli foydalanishga jalb qiladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun sug‘urta bozoriga malakali mutaxassislar talab etiladi. Sug‘urta kompaniyalarida faoliyat yuritayotgan aksariyat hodimlar sug‘urta ishining mutaxassisi emas. Bir bo‘lim xodimi ikkinchi bo‘lim xodimining faoliyati, amalga oshirayotgan ishlari haqidagi ma’lumotga ega emas.

Milliy sug‘urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini taminlash, sug‘urta xizmatlarining talab yuqori bo‘lgan yangi turlarini joriy etish, istemolchilarining sug‘urta bozoriga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdag‘i “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4412-sон qarori bilan mamlakatimizda sug‘urta kompaniyalari ustav fondining minimal miqdoriga qo‘yilgan talablar o‘zgardi.

Takaful to‘g‘ri amalga oshirilishi uchun maxsus sug‘urta jamg‘armasi tuziladi. Jamg‘arma a’zolari oldindan e’lon qilingan tartib-qoidaga ko‘ra sug‘urta uchun badallarni ehson sifatida jamg‘armaga kiritishadi, jamg‘arma esa o‘z mulkiga aylangan ushbu mablag‘lar hisobidan a’zolarining kelishilgan zararlarini qoplab turadi. Yil yakunida sug‘urtadan ortgan mablag‘larning bir qismi jamiyat nizomidagi tartib-qoidalar asosida keyingi yillar zaxirasiga olib qo‘yilishi yoki a’zolar o‘rtasida taqsimlanishi, vaqf shaklida tuzilgan jamg‘armaning qoldig‘idan esa muhtojlarga moddiy yordam ham ko‘rsatilishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bolsak, mamlakatimizda sugerulta bozorining sust rivojlanishiga sabab ham balki Islomiy sugerulta xizmatlarining yetishmayotganida bolishi mumkinligini hisobga olib, quyidagi takliflarni berish mumkin:

- takaful sugeriasi faoliyatini yølga qøyish uchun maxsus qoun-hujjatlarini takomillashtirish;
- takaful sugeriasi bilan shugullanuvchi malakali kadrlarni tayyorlash;
- takafulni sugerutaning muayyan va hozirgi kunda ommalashgan turi sifatida yoyishda ilgor chet el tajribasiga tayanish.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baydaulet E.A. “Islom moliya asoslari”. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019 y.

2. Z. Iqbal, A. Mirakhор. “An Introduction to Islamic Finance”. John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd. Published 2011 y
3. Islomiy sug’urta – Takaful – AIC
4. <https://aicuz.com/2022/03/24/islamskoe-strahovanie-takaful/?lang=uz>
5. <https://kun.uz/uz/news/2021/03/05/islom-sugurtasi-boyicha-ozbekistonidagi-birinchi-pilot-loyiha-apex-takafulning-taqdimoti-otkazildi?q=%2Fnews%2F2021%2F03%2F05%2Fislom-sugurtasi-boyicha-ozbekistonidagi-birinchi-pilot-loyiha-apex-takafulning-taqdimoti-otkazildi>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug’urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g’risida” PQ-4412-son qarori.